

QALBDA TUG‘ILGAN KELAJAK YOXUD PSIXOLOGIK KUCH

Muallif: **Abdulloyeva Sabrina**

Annotatsiya. Inson tug‘ilgan lahzadan boshlab orzular bilan uyg‘onadi. Bolalikdan tortib, keksa yoshgacha har bir hayot davrida o‘z orzusi mavjud bo‘ladi. Ushbu maqolada orzuning psixologik mohiyati, uning shaxsiy o‘shidagi o‘rni va amaliy ahamiyati tahlil etiladi. Abraham Maslowning o‘z-o‘zini anglash nazariyasi, Edwin Lok va Gary Lathamning maqsad qo‘yish nazariyasi asosida orzularning inson motivatsiyasidagi roli ko‘rib chiqiladi. Maqola orzularni ro‘yobga chiqarish yo‘llari, to‘siqlar va zamonaviy imkoniyatlar haqida amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: orzu, psixologik kuch, shaxsiy o‘shish, motivatsiya, o‘z-o‘zini anglash, maqsad qo‘yish, taraqqiyot.

Kirish

Qalbdagi tug‘ilgan har qanday kelajak orzudan boshlanadi. Ba‘zan odamlar orzuni shunchaki xayol deb o‘ylashadi. Aslida esa orzu hali dunyoga kelmagan kelajakning yuragidagi ilk nafasi hisoblanadi. U ko‘z bilan ko‘rinmasa ham, insonning har bir qadamiga yo‘l ko‘rsatadi. Orzu bo‘lmagan joyda harakat so‘nadi, harakat bo‘lmagan joyda esa hayot o‘z rangini yo‘qotadi.

Inson tug‘ilgan lahzadan boshlab orzular bilan uyg‘onadi. Bolalikning ilk qadamidan tortib, keksa yoshgacha har bir hayot davrining o‘z orzusi bor. Ayrim orzular vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, ayrimlari esa inson qalbining eng chuqur burchagida umr bo‘yi saqlanadi.

Asosiy qism

1. Orzuning psixologik mohiyati

Psixologiya fani bu hodisani yaxshi o‘rganmagan. Abraham Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga ko‘ra, inson o‘zini anglash (self-actualization) darajasiga yetishishi uchun orzular va maqsadlar muhim rol o‘ynaydi. Edwin Lok va Gary Lathamning maqsad qo‘yish nazariyasi esa aniq va qiyin maqsadlar inson motivatsiyasini keskin oshirishini isbotlaydi.

2. Orzular va hayotiy muvaffaqiyat

Kecha imkonsiz bo‘lgan narsa bugun orzusi uchun tinmay mehnat qilayotgan odam uchun haqiqatga aylanadi. Chunki orzu faqat natijada emas, insonni o‘zi ham qayta yaratadi. Ammo orzular osmondan tushmaydi. Ular pishona ter, sabr va matonat talab qiladi.

3. Zamonaviy dunyoda orzular

Bugungi dunyo — kechagi orzularning mahsulidir. Baland binolar, zamonaviy texnologiyalar, buyuk kashfiyotlar va insoniyat taraqqiyoti — hammasi bir paytlar kimningdir qalbidagi orzudan boshlangan.

Xulosa

Qallda tug‘ilgan kelajak — bu insonning ichki psixologik kuchi. Orzu faqat natijada emas, insonni o‘zi ham qayta yaratadi. Shunday ekan, orzularimizni hech qachon kechiktirmaylik.

Amaliy tavsiyalar:

1. Har kuni o‘z orzularingizni yozib boring va ularni aniq maqsadlarga aylantiring.
2. Kichik qadamlardan boshlang — har kun 1% yaxshilanish.
3. Muvaffaqiyatsizliklarni saboq sifatida qabul qiling.
4. O‘z maqsadingizga ishongan odamlar bilan muloqot qiling.
5. Zamonaviy vositalardan (ilova, onlayn kurslar, jurnal) foydalaning.